



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
E-mail: ibragimov@mail.ru  
tel: +99899 074 11 91

## O'QITUVCHINING KASB STANDARTINI ISHLAB CHIQUISHGA DOIR YONDASHUVLAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Maqolada turli davlatlarda pedagoglar uchun mo'ljallangan kasb standartlarining mazmuni, mohiyati, ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish shartlari, shuningdek, ularning o'qituvchi faoliyatini tashkil qilishda jarayon ishtirokchilariga aloqadorligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy standart, fanga doir bilim, pedagogik amaliyot, qadriyatlar va kasbiy faoliyat, ishtirokchilar aloqadorligi.

Ta'lim islohotlarining amalga oshirilishi uning natijadorligi va o'quvchilarning barkamol rivojlanishini nazarda tutar ekan jarayonda o'qituvchining malaka darajasi ustuvorlik kasb etadi. Ya'ni, o'qituvchining ta'lim jarayonini anglash, loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zaruriy kompetentligi tizim oldiga qo'yilayotgan vazifalarning samarali bajarilishini hamda kutilgan natijalarga erishishni ifoda etadi.

Turli davlatlarda joriy qilingan pedagoglar uchun kasb standartlari mazmunining qiyosiy tahlili ularda umumiy yondashuvlar, tuzilmaviy jihatdan

o'xshashliklar yoki bir-biridan farq qiluvchi qismlar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, B.Pontning ishlarida keltirilgan 7ta davlat (Avstraliya, Kanada, Chili, AQSH, Angliya, Meksika, Yangi Zelandiya) standartlarining solishtirma tahliliga ko'ra, ular asosan uchta tarkibiy qismdan iboratligi aniqlangan: pedagogning bilimi, amalga oshiradigan faoliyati va ega bo'lishi lozim bo'lgan qadriyatlar. Tarkibiy qismlarning mazmuni esa bir-biridan farq qilishi yoki boshqacha nomlanishi mumkin (1-jadval).

## Turli mamlakatlarda amalda bo'lgan pedagogning kasb standartlari mazmuni (B.Pont [2])

	Avstraliya	Kvinslend (Avstraliya)	Viktoriya (Avstraliya)	Britaniya Kolumbiyasi (Kanada)	Chili	NBPTS* (AQSh)	INTASC** (AQSh)	Kaliforniya (AQSh)	Texas (AQSh)	Angliya	Meksika	Yangi Zelandiya
<b>Fanga doir bilimi</b>												
Fanni bilish va tushunish (umumiy ma'noda ifodalangan)	X	X	X	X	X	X	X	X		X	X	X
Fanni bilish va tushunish (har bir fan va bosqich aniq belgilangan)					X	X			X			
<b>Pedagogik amaliyot</b>												
O'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini (madaniyati, avvalgi tajribasi, ta'limga bo'lgan ehtiyoji) bilish, qadrlash va ularni inobatga olgan holda o'qitish	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X
O'quvchilarning qanday o'qishini tushunish va bundan foydalanish (o'rganish va rivojlanish nazariyalari)	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X		X
Barcha o'quvchilardan yuqori natijalar kutish	X		X	X	X	X	X	X	X	X		X
Intizomni qanday o'rgatishni bilish	X		X	X	X	X	X	X	X	X	X	X
Yuqori darajadagi tanqidiy fikrlash va ko'nikmalarni rivojlantirish	X	X	X	X	X	X	X	X	X		X	X

O'qitish va o'rganishni rejalashtirish, amalga oshirish va baholash	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X
Ta'lim olishni rag'batlantiruvchi muhit yaratish va uni mo'tadil saqlab turish	X	X	X		X	X	X	X	X	X	X	X
O'quvchilarning ta'lim olishi va rivojlanishida oilaning rolini to'g'ri baholash	X	X	X	X	X	X	X	X	X			X
O'quvchilar orasida ijtimoiy qadriyatlar va etikani targ'ib qilish		X		X		X			X			
Ta'limda axborot texnologiyalarini qanday qo'llashni bilish	X	X	X		X	X	X	X	X	X		X
Demokratik qadriyatlarni o'qitish amaliyoti tarkibiga kiritish					X							
<b>Qadriyatlar va kasbiy faoliyat</b>												
O'quvchilarning ta'lim olishi va rivojlanishiga ustuvorlik qaratish			X	X	X	X						
O'zining o'qituvchilik amaliyoti haqida fikrlash va baholash	X	X	X	X	X	X	X	X	X	X		X
Ta'lim siyosatining mantiqiy asosini va amaliyotda qo'llanishini bilish				X					X			X
Kasbiy ta'limga katta e'tibor qaratish	X	X	X	X	X	X	X	X	X			X
Maktab faoliyatiga o'z hissasini qo'shish	X	X	X		X	X		X	X	X		X
O'qituvchilik kasbining rivojiga hissa qo'shish	X	X	X	X			X	X				
Axloq qoidalarini bilish va amaliyotda qo'llash		X	X	X				X	X	X		X
Ma'muriy vazifalarni bajarishga layoqatli bo'lish (qayd yetish va boshq.)	X		X						X			

NBPTS\* – National Board for Professional Teaching Standards (Kasbiy pedagogik standartlar milliy kengashining standarti).

INTASC\*\* – The Interstate New Teacher Assessment and Support Consortium (Boshlovchi o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va baholash konsorsiumining standarti)

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, keltirilgan standartlarning aksariyati bir-biriga o‘xshash o‘quv vazifalarini tavsiflaydi, farqlarni faqat har bir hudud uchun berilgan tafsilotlarda topish mumkin. Masalan, umumiy mazmunga ko‘ra, barcha standartlarda o‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘qitishni to‘g‘ri rejalashtirishi, amalga oshirishi va baholashi kerakligini ta’kidlansa-da, ba’zi hollarda ushbu komponentlar turli xil mezonlar va ko‘rsatkichlar orqali taqdim etiladi. Aniq misollarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Britaniya Kolumbiyasi kasb standartlarida bu elementlar umumlashtirilib ifodalansa, Avstraliya ta’limidagi muhim xususiyatlardan biri, o‘qituvchilardan ma’muriy ko‘nikmalarning talab qilinishidir. Meksika standartlari esa deyarli amaliy mashg‘ulotlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan boshqa kasbiy vazifalar qoldiriladi va faqatgina sinfdagi mashg‘ulotlarga urg‘u beriladi [2, 35-b.].

Shuni alohida qayd etish kerakki, barcha mamlakatlarda ham kasb standartlari joriy qilinmagan bo‘lsa-da, ularda mazkur vazifani ifodalovchi milliy tizimlar mavjud. Masalan, hozirgi paytda respublikamizda xodimlarning ish faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarda tegishli lavozimlarning malaka tavsiflaridan foydalaniladi. Bu jarayon Braziliyada pedagoglarning eng yaxshi amaliyoti bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, Janubiy Koreyada boshlovchi o‘qituvchilar uchun lisenziyalash indikatorlarida o‘z aksini topgan.

O‘qituvchilar maktablar bilan birgalikda mamlakatning ko‘zga ko‘rinarli bo‘lgan transport va energetika sohalari kabi zamonaviy davlat uchun muhim bo‘lgan infratuzilmani tashkil qiladi [1]. O‘qituvchilar sifat tarkibining yuqori bo‘lishi o‘quvchilarning ta’lim natijasida erishgan muvaffaqiyatlariga to‘g‘ri mutanosiblikda bo‘ladi. Alohida e’tirof etish lozimki, respublikamizda ham o‘qituvchining kasbiy standartlari ishlab chiqildi va tegishli tartibda tasdiqlandi. Kasb standartlari o‘qituvchilarning faoliyatini baholash, ularni attestasiyadan o‘tkazish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun ham asos hisoblanadi. Shuningdek, kasb standartlari, aynan, o‘qituvchining sifat darajasi, uni rivojlantirish va jamiyatdagi mutaxassisga bo‘lgan butun tizimning barcha bo‘g‘inlari bilan aloqadorligini ifodalaydi. Jumladan:

o‘qituvchilar – o‘z kasbiga qo‘yilgan talablarni to‘liq tushunish, faoliyatiga doir maqsadlarni to‘g‘ri qo‘yish, kasbiy rivojlanishini rejalashtirish va mavqyeini ko‘tarish uchun;

ta‘lim tashkiloti rahbarlari – o‘qituvchilarning majburiyatlari, faoliyatini tashkil qilishga doir hujjatlar, talablar va yo‘riqnomalarni ishlab chiqish, ular bilan mehnat shartnomasini tuzish yoki bekor qilish, ularni kasbiy rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash, malakasini oshirish, mavqyeini ko‘tarish, kasbiy o‘shirish harakatini yoki qayta taqsimlashni amalga oshirish uchun;

oliy va malaka oshirish ta‘limi tashkilotlari – pedagog xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga doir ta‘lim dasturlari va tegishli o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish uchun;

ta‘lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari – o‘qituvchilar faoliyatini baholash, ta‘lim sifati monitoringini olib borish va istiqbollarni belgilashda kasb standartlari muhim me‘yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, pedagogning kasb standarti o‘qituvchi tomonidan o‘z misssiyasining to‘liq anglanishi, faoliyatida aniq mo‘ljall olishi va rivojlanishini ifodalovchi muhim hujjat vazifasini o‘taydi. Shunday ekan, respublikamizda ham ishlab chiqilgan o‘qituvchilar uchun kasb standartlarini amaliyotga joriy qilish sohada olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy izchilligini aks ettiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ingvarson L.S. Standards for Graduation and Initial Teacher Certification: The International Experience [Elektron resurs]. – Melbourne: ACER, October, 2012. – 63 p. – URL: [https://works.bepress.com/lawrence\\_ingvarson1/206/](https://works.bepress.com/lawrence_ingvarson1/206/) (murojaat vaqti: 4.05.2020).

2. Learning Standards, Teaching Standards and Standards for School Principals: a Comparative Study [Elektron resurs] / B. Pont // OECD Education Working Paper. № 99. Centre of Study for Policies and Practices in Education (CEPPE). Chile. – EDU/WKP(2013)14. – 79 p. – URL: <https://www.oecd->



[ilibrary.org/education/learning-standards-teaching-standards-and-standards-for-school-principals\\_5k3tsjqtp90v-en](https://www.ilibrary.org/education/learning-standards-teaching-standards-and-standards-for-school-principals_5k3tsjqtp90v-en) (murojaat vaqti: 5.05.2020).

3. Margolis A.A. Professionalный standart pedagoga: razrabotka i ispolzovaniye v Rossii i za rubejom. — M.: FGBOU VO MGPPU, 2019. — 240 s.